

MA’NAVIYATNING YUKSAK AXLOQIY TAMOIYILLARI ASOSIDA YOSHLARDA SOG‘LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

S.O. Ataxanova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada dunyoning mafkuraviy manzarasiga, ijtimoiy jamiyatda axborotlar asosida ma’lum ijtimoiy fikrning shakllanishi, yoshlarda sog‘lom tafakkurning rivojlantirishi va Internet orqali dunyoning istalgan yeridan kerakli ma’lumotlarni soniyalar ichida bilib olishi to‘g‘risida tavsiflar qayd etilgan. Shuningdek, yoshlarning kompyuter o‘yinlariga qiziqishi, atayin kompyuterlar uchun ishlab chiqarilayotgan o‘yinlarning bolalar tarbiyasiga salbiy ta’siriga doir ilmiy qarashlar yoritib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: yoshlar, sog‘lom tafakkur, ijtimoiy fikr, Internet, bolalar tarbiyasi, kompyuter o‘yinlari, axloq, axborot, madaniyat, ma’naviyat.

Yoshlarning sog‘lom fikr yuritishi tafakkurning barcha shakllari bilan aloqador, deb qarash nuqtayi nazari bilan bog‘liqdir. Yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishi provord natijada o‘z burchiga sodiqlik mas’uliyatni talab qiladi. U insondan sabrli, chidamli, qat’iyatli, matonatli, jasurlik va mardlik fazilatlariga ega bo‘lishni shart qilib belgilaydi. Yoshlarda vatanparvarlik mohiyatan insonning kundalik tashvishlaridan yuksakka, ulug‘vorlikka ko‘tarilishidir. Ma’naviy tahdidlardan vatanni himoya qilish, bu yo‘lda jonini fido qilish yuksak axloqiylik hisoblanib, bunday axloq xudbinlikdan burchni anglashga o‘tishdir. Zero, vatanparvar kishining burchi – xayrli ishlar qilishidan, ya’ni biror-bir mukofotga umid bog‘lamasdan, imkon qadar odamlarga yordam berishidan va ularning baxtli bo‘lishiga ko‘maklashuvidan iboratdir. Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib bormoqda. Unda kuchli ta’sirga ega bo‘lishning eng maqbul yo‘li, yoshlarda sog‘lom tafakkurni rivojlantirishdir [1]. Shuningdek, har qancha mablag‘ talab etilishidan qat’iy nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash bo‘lib qoldi.

Jahonda “axborot urushi” ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi kinofilmlar tarqatilmoqda. Tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma’lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Ta’kidlash

joizki, bugun ko‘plab “Internet klub”lar faoliyat ko‘rsatmoqda. Internet orqali dunyoning istalgan yeridan kerakli ma’lumotlarni soniyalar ichida bilib olish mumkin. Biroq, bu tangananing bir tomoni. Ikkinchi tomonida esa ko‘ngilsiz voqea-hodisalarning guvohi bo‘lasiz. Internet klublarning asosiy mijozlarini voyaga yetmagan bolalarni tashkil etishadi. Maktab yoshidagi bolalar kompyuterlarda asosan o‘yin o‘ynashga qiziqadi, lekin bugungi kunda atayin kompyuterlar uchun ishlab chiqarilayotgan o‘yinlarning o‘zi ham bolalar tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular aksariyat hollarda «Call of Duty», «GTA», «Warrior of war» va «Prince of Persia» shu kabi o‘yinlarni sevib o‘ynashadilar. Biroq, aynan mana shu o‘yinlarda qonli to‘qnashuvlar, otishmalar, qilichbozlik, buzg‘unchilik va hattoki mafiyabozlik to‘g‘risidagi va shu bilan birga shahvoniy video tasmlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunday o‘yinlarni o‘ynagan bolalarda qanday tafakkur shakllanishi mumkin? Albatta sog‘lom tafakkur emas! Qurol olib o‘q uzishni yoin-ki qilichbozlik qilishni yoqtiradigan bola, bir kun kelib haqiqatdan ham qurol, qilich yoki sovuq qurollarni ushlamasligiga hech kim kafolat berolmaydi [3].

Shuning uchun mamlakatimizda “Qadr-qimmatim, tayanchim va iftihorimsan, mustaqil O‘zbekiston!”, “Mustaqillik – eng ulug‘, eng aziz ne‘mat!”, “Taqdirimsan, baxtimsan, erkin va obod Vatan!”, “Bu muqaddas Vatanga azizdir inson!”, “Vatan ozodligi – oliy saodat!”, Mustaqillik – g‘ururimiz va iftihorimiz!”, “Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O‘zbekistonim!”, “Go‘zal va betakrorimsan mustaqil Vatanim, jonim senga fido – O‘zbekistonim!”, “Fidoying bo‘lgaymiz seni – O‘zbekiston” kabi shiorlarning muomalaga kiritilishi fuqarolarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish bilan birga sog‘lom tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish insonning amaliy faoliyati hamdir. Chunki, inson Vatanni o‘ylab, uning taraqqiyoti, yorug‘ kelajagi yo‘lida mehnat qilsa, kurashsa vatanparvarlik amaliy faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa barcha xalqlar hayotida yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlangan. Bular – sharaflilik, xushxulqlik, olijanoblik [2]. Shu ma’noda, “Chinakam vatanparvar” deganda o‘z ma’naviyatini turli tahdidlardan himoya qilgan, millat ma’naviyati uchun kurashadigan, xalq manfaatlarini ko‘zlab ish tutadigan insonlarni tushunish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yoshlarning g‘ayri-ijtimoiy xatti-harakat ya’ni muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalarni iste’mol qilishga, fohishalik, daydilik yoki tilanchilik bilan

shug‘ullanishga, shuningdek, o‘zga shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini poymol qiladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilishga moyillik holatini yuzaga keltiradi.

Internetning maktab yoshidagi bolalarga foydali tamonidan ko‘ra, zarari ko‘proq. Yoshlarimizning internetdan qanday foydalanishini ota-onalar va kattalar muntazam nazorat qilishi lozim. Aks holda, bu holat bolalar ongiga oddiy holat tarzida joylashib olsa, keyinchalik ming urinmang bu holatni o‘zgartirish qiyin bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq 18 yoshga to‘lmagan shaxs voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi [3]. Qarovsiz qolgan, voyaga yetmagan, ya’ni, turar joyi bo‘lmagan va nazoratsiz qolgan bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Aytish joizki, bunday vaziyatlar voyaga yetmagan shaxsda o‘z-o‘zidan deviant (jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloq-odob qoidalariga zid bo‘lgan) xulq-atvorni shakllantiradi. Inson yaralibdiki, yaxshilikka, ezgulikka intilib yashaydi, hamisha ertangi kunidan umidvor bo‘lib, hayotdagi barcha orzu-havaslarga erishishni istaydi va harakat qiladi. Azaldan xalqimizning o‘ziga xos orzusi – yosh ota-onalar farzand ko‘rishni va uni odob-axloqi go‘zal, yaxshi kasb egasi qilib tarbiyalashni istaydi. Shu o‘rinda har bir bola bir nihol kabi hamisha e’tibor va parvarishga muhtoj ekani haqida ko‘plab tarixiy manbalar yoki bugunning asoslangan fikrlarini qayd etishga hojati yo‘k. Ijtimoiy ta’limning so‘ngi paytlardagi dolzarb muammosi – ota-onalar o‘z farzandlari taqdiriga birdek e’tiborli emasligidir.

Konstitutsiyamiz va qabul qilinayotgan qonunlarimizning barkamol avlodni tarbiyalashdagi g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati beqiyos bo‘lib, ushbu qonun hujjatlari yoshlarda sadoqat, mardlik va do‘stlik-birodarlik kabi insoniy tuyg‘ularni yuksaltirishga xizmat qiladi. Asosiy qonunimizda bolalarning shaxsiy siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy huquq va erkinliklari kafolatlab qo‘yilgan. Ular jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda teng asoslarda ishtirok etadilar. Yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini rivojlantirish kompleks tarzda tizimli amalga oshiriladigan jarayondir [2]. U jamiyatdagi barcha ijtimoiy-tarbiyaviy institutlarning sa’y-harakatlari orqali ro‘yobga chiqadi. Shu ma’noda, yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini rivojlantirishda shaxsning ichki ruhiy-ma’naviy olamiga, subyektiv xislatlariga ta’sir etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni har qanday sharoitda ham kelajakka ishonchini yo‘qotmaydigan, inson qalbida

doimiy yashaydigan yuksak ma’naviy tuyg‘uni rivojlantirish zarur. Ushbu tuyg‘u o‘tish davridagi fazilatlar taraqqiyotga yo‘l ochib berish funksiyasini bajaradi. Ular shaxs umrining bir qismi, bir bosqichi hisoblanadi. Xususan, Vatanparvarlik – inson umrining doimiy hamrohi bo‘lganligi uchun ham har bir davr unga ehtiyoj sezib boraveradi.

Uning axloqiy mazmunini o‘z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan insoniy fazilatlar belgilaydi. Chunki, millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro‘-e’tibori ham shu millat vakillari vatanparvarlik tuyg‘usining darajasi bilan bog‘liq. Ta’kidlash lozimki, hozirgi davrda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish, provard natijada voyaga yetmaganarni vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash ham milliy, ham umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman pedagogika va psixologiya, xususan axloqiy ta’limga doir manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, yoshlarda sog‘lom tafakkurni rivojlantirishda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish masalasi nafaqat nazariy, balki pragmatik xususiyatga ega. Chunki yoshlarning tarbiyaviy xususiyatlari so‘zda emas, balki amaliy ishlarda namoyon bo‘lganidagina taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin.

Insoniyatga qaratilgan jiddiy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi paytda yoshlarda sog‘lom tafakkurni rivojlantirish, ularni “Ma’naviyat” degan tushunchaning ma’nosini to‘liq anglab yetishga o‘rgatish, ma’naviyat yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ilm ahli uchun dolzarb ijtimoiy vazifaga aylanmoqda. Xolbuki, axloqiy tamoyillar ham uni anglashning o‘ziga xos shakllaridan bo‘lib ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko‘zga tashlanadi. Ular fuqoralik jamiyati tomonidan qo‘yiladigan talablar tarzida namoyon bo‘lib, insonning sog‘lom tafakkurini, uning mohiyatini, hayoti mazmunini, odamlar bilan o‘zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada sog‘lom tafakkur inson xatti-harakatining umumiy yo‘nalishini ko‘rsatgan holda, ko‘pgina axloqiy tamoyillar va me’yorlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataxanova S. Zamonaviy ma’ruza mashg‘ulotlarining talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati // Til va adabiyut.uz. – Toshkent. 2024. 15-son. – B. 82-84.